



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUT REKTORINING
BUYRUG'I**

2023 yil "20" 04

218-son

Toshkent sh.

Ilmiy loyihalar faoliyatiga oid

Davlat ilmiy dasturlari doirasida bajariladigan ilmiy loyihalar samadorligini oshirish maqsadida

BUYURAMAN:

1. Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor N.S.Normaxamatovga, Davlat dasturlari doirasida amalga oshiriladigan loyihalar bajarilishini nazorat qiluvchi koordinatsion guruh boshlig'i A.A.Turaboyevga:

- Innovatsion rivojlanish vazirligi hamda Toshkent farmatsevtika instituti o'rtasida tuzilgan shartnomaga asosan 2023-yil uchun moliyalashtirgan PZ-2020122811-"Mahalliy dorivor Gentiana Oliviyeri Griseb o'simligi asosida diareyaga qarshi dori vositasini yaratish" mavzusidagi amaliy loyihasi katta ilmiy xodimlari Toshtemirova Charos Toshtemirovna, Turaboyev Abdulxamid Abduvoxid o'g'li hamda loyiha laborantlari Rahmonova Dilfuza Sayfullo qizi, Akramova Namunaxon Shokirjon qizi loyiha 2023-yil kalendar rejasiga muvofiq, asosiy ish joylaridagi oylik maoshlari saqlangan holda 2023 yil 21-24 aprel kunlari Jizzax hamda Samarqand viloyatlariga tadqiq etilayotgan o'simliklar mavjud hududlardan o'simlik xomashyosi yig'ib kelish uchun 4 kun muddatga loyiha hisobidan xizmat safariga yuborilsin.

2. Bosh buxgalter N.A.Umirzoqovaga:

Xizmat safari bilan bo'g'liq bo'lgan barcha harajatlar PZ-2020122811-sonli loyiha hisobidan to'lanilishi ta'minlansin.

3. Institutda amalga bo'lgan Davlat ilmiy dasturlari doirasida bajariladigan ilmiy loyihalar doirasida tuzilgan vaqtinchalik ijodiy jamoalar tarkibiga ushbu buyruqning 1-ilovasiga muvofiq o'zgartirishlar kiritilsin.

4. Ushbu buyruq ijrosi nazoratini Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor N.S.Normaxamatov zimmasiga yuklatilsin.

Asos: O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi hamda Toshkent farmatsevtika instituti o'rtasida tuzilgan loyihalarga oid shartnomalar; loyiha rahbari bildirishnomasi.

Rektor



K.S.Rizayev

*Toshkent farmatsevtika instituti rektorining
2022 yil “20” 04 dagi
218 - sonli buyrug`iga 1-ilovasi*

1. PZ-2020122811 – Mahalliy dorivor *Gentiana Oliviyeri* Griseb o‘simligi asosida diareyaga qarshi dori vositasini yaratish mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida tuzilgan vaqtinchalik ijodiy jamoa tarkibiga Dori vositalarining sanoat texnologiyasi kafedrası assistenti **Usmonova Malika Komiljon qizi** 2023-yil 1-aprel sanasidan kichik ilmiy xodim sifatida, Farmakologiya va klinik farmatsiya kafedrası professori, tibbiyot fanlari doktori **Fayziyeva Ziyoda To`rayevna** 2023-yil 1-aprel sanasidan yordamchi xodim sifatida qabul qilinsin.